

MAQOM XONANDALIGI: AN'ANAVIY SAN'ATNING O'ZIGA XOS YO'NALISHI



Komilaxon Bo'riyeva

"Maqom xonandaligi" kafedrasi professori v.b
Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
komilabo'riyeva@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-06>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek an'anaviy musiqa madaniyatining muhim bo'g'ini bo'lgan maqom xonandaligi san'ati tahlil qilinadi. Maqom yo'nalishida xonandaning ijrochilik mahorati, estetik qarashlari, musiqiy bilimlari va og'zaki an'anaga asoslangan tahlili yondashuvlari yoritiladi. Shuningdek, maqom xonandaligini ta'lif tizimida o'qitish uslublari, Shashmaqomning janrlari va badiiy-estetik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Maqola orqali maqom xonandaligi nafaqat ijro san'ati, balki ma'naviy-ma'rifiy qadriyat sifatida ham talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Maqom, xonandalik, an'anaviy musiqa, Shashmaqom, ijro san'ati, ta'lif, og'zaki an'ana.

Аннотация: В данной статье анализируется искусство пения макомов как важнейший компонент традиционной узбекской музыкальной культуры. В ней исследуются исполнительское мастерство, эстетические взгляды, музыкальная грамотность и аналитические подходы, основанные на устной традиции, певцов макомов. В исследовании также рассматриваются методы преподавания в системе образования и художественно-эстетические особенности жанров Шашмакома. Традиция исполнения макомов интерпретируется не только как исполнительское искусство, но и как духовная и образовательная ценность.

Ключевые слова: Маком, пение, традиционная музыка, Шашмаком, исполнительское искусство, образование, устная традиция.

Abstract: This article analyzes the art of maqom singing as a vital component of traditional Uzbek musical culture. It explores the performative mastery, aesthetic views, musical literacy, and oral-tradition-based analytical approaches of maqom singers. The study also examines teaching methods within the educational system and the artistic and aesthetic features of Shashmaqom genres. The maqom singing tradition is interpreted not only as a performance art but also as a spiritual and educational value.

Keywords: Maqom, singing, traditional music, Shashmaqom, performance art, education, oral tradition.

O'zbek xalqining ko'p asrlik musiqa madaniyatida maqom san'ati alohida o'rinnegallaydi. Maqomlar, ayniqsa Shashmaqom, xalq ijodiyoti va mumtoz musiqanining uyg'unlashuvi bo'lib, u o'ziga xos musiqiy, falsafiy va estetik tizimga ega. Ushbu maqolada aynan maqom xonandaligi - ya'ni maqomlarni ijro etish san'ati, uning ta'lif tizimidagi o'rni, estetik qadriyat sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Musiqa san'ati, o'zining turli janrlari, shakllari va uslublari bilan birga milliy madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, an'anaviy musiqa va maqom san'ati o'zining tarixiy va estetik ahamiyatini yo'qotmagan. Boshqa san'at turlarida bo'lgani kabi, musiqa san'atida ham ijrochilikni o'rgatish tizimi muhim o'rinn tutadi. Xonandalik san'atining avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'analar - ustoz-shogird tizimi orqali mahoratni o'rgatish, tajriba almashish va musiqiy merosni saqlab qolish amaliyoti asrlar davomida shakllangan. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va jahon tajribasi bilan integratsiyalashgan holda

maqom san'atini yangi avlodga o'rgatish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimida yangilanish va takomillashtirishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maqom san'atini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan qator qaror va farmonlari - jumladan, maqom ijrochiliginin saqlab qolish, yangi ijodiy shakllarni yaratish, va mumtoz musiqani asrash masalalariga qaratilgan 20 dan ortiq me'yoriy hujjatlar - sohada mutlaqo yangicha yondashuvlarni shakllantirdi. Davlatimizning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yosh avlodni yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tarbiyalash asosiy maqsad sifatida belgilanmoqda. Bu esa, musiqa ta'limida ham zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi.

Musiqa ijrochiligi - xususan, an'anaviy xonandalik - xalq musiqa ijodiyoti va uning janrlari asosida shakllanadi. Xonandalik an'analari va uslublari ijro amaliyoti jarayonida kengayib, sayqal topadi. Aslida, ijrochilik tajribasi og'zaki an'ana asosida, avloddan-avlodga og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Bu jarayon "ustoz-shogird" an'anasi asosida shakllanib, mukammal maktablarni yuzaga keltirgan. Maqom xonandaligi bo'yicha ta'lim ham ana shu ustoz-shogirdlik an'anasi negizida shakllanib, bizgacha yetib kelgan. Adabiyotlarda bu an'anaving boy tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari qayd etilgan.

An'anaviy xonandalikni o'z kasbi sifatida egallashni istagan har bir san'atkori avvalo bir ustozni tanlab, undan ijrochilik, xonandalik sirlari va uslublarini o'rganishga intilgan. Xalqimizda bu amaliyot o'zining qat'iy qoidalariga ega bo'lган. Musiqa va san'atga mehr-muhabbati, salohiyati va iqtidorini namoyon eta olmaganlar bu sohada o'z o'rmini topolmagan, qobiliyatli yoshlar esa ustoziga sadoqat bilan xizmat qilib, bu sohaning barcha murakkabliklariga chidab, xonandalik sirlarini chuqur o'rganishga harakat qilgan.

Dunyo xalqlari qatori o'zbek xalqining ham boy madaniy merosi mavjud. Bu meros asrlar davomida shakllanib, xalqimizning musiqiy, adabiy va ma'naviy qadriyatlari bilan uyg'unlashgan. O'zbek musiqasi, ayniqsa maqom san'ati, o'zining murakkab tuzilmasi, poetik mazmuni va ruhiy teranligi bilan ajralib turadi. Har qanday milliy meros singari, maqom ijrochiligi ham og'zaki an'ana asosida asrlar davomida yashab kelmoqda. Bu an'ana bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda ijro amaliyoti orqali rivojlanishda davom etmoqda.

Milliy qadriyatlarmiz zamon talabi asosida yangilanmoqda, ammo ular asliga sodiq qolgan holda navqiron avlod tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Maqom xonandaligi ana shunday sohalardan biri sifatida, san'atkoring nafaqat texnik mahoratini, balki ma'naviy olamini, estetik didini ham shakllantiradi. Shu bois maqom san'atini, xususan, maqom xonandaligini o'rganish, saqlash va rivojlanish hozirgi davrning dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Maqom san'ati yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar mazmuni boy va serqirra bo'lib, uning tarixiy ildizlari qadim zamonalarga borib taqaladi. Bu borada ko'plab allomalar va olimlar tomonidan qimmatli ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Jumladan, maqomlar masalasida bizgacha juda ko'plab ustozlarimiz ilmiy izlanishlar olib borgan. Qadimgi davrlarda yashab o'tgan Abu Nasr Farobi, Darvesh Ali Changiy, Maxmud Sherazi, Zaynulobiddin Xusayniy, Safiuddin Urmaviy kabi allomalar maqom nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ulardan keyin esa buyuk mutafakkir Alisher Navoiy san'atning badiiy-estetik jihatdan yoritib bergen.

Zamonaviy davrda esa bu sohaga ilmiy asosda yondashgan olimlar orasida Abdurauf Fitrat alohida e'tiborga loyiqidir. U o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli risolasida maqomlarni Mushkilot, Nasr va Ufar qismlariga ajratgan holda tahlil qilish mumkinligini nazariy asoslab bergen. Ayniqsa, Ufar qismlarining 6/8 va 3/4 o'lchovlarda bo'lib, sho'x, raqsbob xarakterga ega ekani, hamda yakunlovchi funksiya bajarishi haqidagi mulohazalari, maqom ijrosi va talqini nuqtayi nazaridan muhimdir.

Shuningdek, maqomlarning soddadan murakkabga, sekindan tezga qarab rivojlanish jarayoni, ularning tuzilish jihatidan o'sishi, xonanda va bo'zgo'ylarning ijrosida mazmun va mohiyatga qarab taktlar kengayib borishi — bularning barchasi ijrochilar va izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun dolzarb tadqiqiy masalalardandir. Mazkur tizimlanish va

rivojlanish g‘oyasi maqom san’atining ichki strukturasi va estetik g‘oyasini yoritishga xizmat qiladi.

Ushbu yo‘nalishda o‘zbek musiqashunosligining zabardast namoyandalari, olimlarning risola, maqola va izlanishlari maqom xonandaligi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy ishlarda dasturi amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning har biri o‘z yondashuvi bilan maqom tahlilini boyitib, ijro amaliyotining nazariy asoslarini belgilab bergan. Pedagog ustoz esa har bir mavzuga tarixiy va nazariy yondoshishi, va kerakli joyda o‘z fikrlarini aniq misollar orqali yoritib berishga harakat qilishi zarur. Zero, maqomlarni to‘laqonli va ma’naviy chuqur anglab ijro etish xonandadan faqat texnik emas, balki estetik, falsafiy va g‘oyaviy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Bu esa yuqorida nomi tilga olingan mutaxassislar tomonidan yaratilgan ilmiy asoslar orqali shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, maqom san’ati va xonandaligi borasidagi mavjud adabiyotlar, qadimiydan to zamonaviygacha bo‘lgan nazariy izlanishlar asosida, ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borishga keng imkoniyat yaratadi. Shu bois, bu adabiyotlarni tahlil qilish va ular asosida yangi ilmiy yo‘nalishlarni aniqlash, zamonaviy maqom ta’limini takomillashtirish yo‘lida muhim bosqich hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishida maqom xonandaligining o‘ziga xos xususiyatlari, uning an’anaviy musiqiy san’atdagi o‘rni, estetik-falsafiy mazmuni va ta’lim tizimidagi ahamiyatini chuqurroq o‘rganish maqsad qilingan. Shu boisdan mazkur ilmiy izlanishda bir qator kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Eng avvalo, maqom xonandaligining tarixiy ildizlarini, uning shakllanish jarayonlarini hamda taraqqiy etgan bosqichlarini tahlil qilishda tarixiy-nazariy manbalarga murojaat qilindi. Qadimgi musiqiy traktatlar va asarlar, musiqiy fikrlar taraqqiyoti nuqtayi nazaridan o‘rganilib, ular zamonaviy xonandalik amaliyoti bilan taqqoslandi.

Shuningdek, maqom xonandaligi an’anaviy va akademik vokal yo‘nalishlari bilan qiyosiy tahlil etilib, ularning didaktik, estetik va ijro uslubidagi farqlari aniqlab berildi. Maqomdagি Mushkilot, Nasr va Ufar bo‘g‘inlarining ritmik tuzilishi, mazmuniy yuklamasi va ijro talablari tasviriy metod asosida yoritildi. Xonandaning badiiy tafakkuri, matn bilan ishslash malakasi, ovozga hukmronlik darajasi maqom ijrosida qanday rol o‘ynashi tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida maqom san’atining og‘zaki an’anaga asoslangan ustoz-shogird tizimi alohida diqqat markazida bo‘ldi. Ustoz san’atkorlar bilan suhbatlar olib borildi, amaliy dars jarayonlari kuzatildi hamda bu orqali xonandalikning amaliy o‘qitilish uslublari tahlil etildi. Bu kuzatuvarlar, shuningdek, maqomning avloddan-avlodga o‘tish mexanizmlarini ochib berishga xizmat qildi. Zamonaviy maqom xonandalarining tajribalari asosida ularning repertuar tanlovi, ijro uslublari, ovoz imkoniyatlari va badiiy ifoda vositalariga bo‘lgan yondashuvlari o‘rganildi.

Bundan tashqari, maqom ashulalarida qo‘llaniladigan matnlarning poetik qurilishi, ulardagи badiiy vositalar, g‘azaliyat bilan uyg‘unligi matnshunoslik tahlili orqali yoritildi. Shuningdek, maqomning ichki mazmuni, ijtimoiy-falsafiy mazmun qatlamlari, ruhiy-estetik holatlarni ifodalashdagi o‘rni musiqiy-poetik tahlil asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda musiqiy adabiyotlar, ilmiy risolalar, maqolalar, amaliy dars yozuvlari va maqom ijrochilarining sahna chiqishlari asosiy manba sifatida xizmat qildi. Ilmiy yondashuvda nazariya va amaliyot uyg‘unligiga alohida e’tibor berildi. Bu esa maqom xonandaligining ta’lim tizimidagi o‘rni, uni o‘qitishning uslubiy assoslari hamda pedagogik yondashuvlarni ilmiy asoslash imkonini berdi. Natijada maqom xonandasasi sifatida shakllanish jarayoni, uning metodik asoslari va zarur bo‘lgan ijroiylari fazilatlari tizimli tarzda o‘rganildi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, maqom xonandaligi bo‘yicha maxsus tayyorgarlik ko‘rgan talaba ijrochi faqatgina musiqa aytish bilan cheklanmaydi, balki chuqur estetik tafakkur, poeziya, falsafa va madaniyatni o‘zida mujassamlashtirgan san’atkorga aylanadi. Xonandalikda Shashmaqom janrlarini tahlil asosida o‘zlashtirish, musiqiy va nazariy bilimlarni birlashtirish juda samarali natija bermoqda.

Maqom xonandaligining o‘ziga xos xususiyatlari, uning badiiy va pedagogik jihatlari chuqur tahlil qilindi. Maqom xonandasasi nafaqat musiqiy ijrochi, balki xalqning ma’naviy boyliklarini, uning tarixiy va estetik qadriyatlarini zamonaviy o‘quvchilarga yetkazuvchi ustozdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maqom xonandaligining pedagogik asoslari o‘zining tarixiy

rivojlanishi davomida nafaqat musiqaning ijro texnikasini, balki uning mazmunini va estetik ifodasini ham o'rgatishga xizmat qilgan.

Maqomlarni o'rganish va ijro etishda, xonanda nafaqat musiqiy-ijroiylar malakalarni, balki badiiy tafakkur va til orqali ifoda etish mahoratini ham rivojlantirishi kerak. Tadqiqotda maqomlarning an'anaviy ijro yo'llari va ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar o'rganildi. Shuningdek, maqomlarning ichki tuzilishi, mazmuni, har bir bo'limning o'ziga xos ifodalanishi, uning ijrochilar tomonidan qanday ishlanib chiqilishi muhim o'rinni tutadi. Maqomlarni o'rganishda va ijro etishda asosan quyidagi tamoyillar alohida ajralib turadi: musiqaning dinamikasi, har bir bo'limning mazmuni va shaklning izchil rivojlanishi, ovoz va texnik jihatdan bajarilishining nozikligi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maqom san'ati an'anaviy musiqa madaniyatining eng yuqori namunalaridan biridir va uni zamonaviy pedagogik tizimda o'rgatish, ayniqsa, xonandalik yo'nalishida juda muhimdir. Maqomlarni ijro etish jarayonida xonandaga bir qator xususiyatlar – estetik did, musiqiy tafakkur, matnni tushunish va unga mos ravishda badiiy ifoda etish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar esa o'z navbatida, xonandaning ijro mahoratini yanada yuksaltiradi. Maqomning rivojlanishida xonandalar tomonidan o'zgartirishlar kiritish, ijro uslubini zamon bilan uyg'unlashtirish hamda maqomning yangi shakllarini yaratishning ahamiyati katta.

Maqom san'ati xalq musiqa ijodining o'ziga xos va noyob yo'nalishidir. Bu san'at nafaqat ijrochilik malakalarini rivojlantirishga, balki zamonaviy xonandalikning o'ziga xosligi, ya'ni ijro uslubining shakllanishiga, musiqa pedagogikasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maqom xonandaligi metodik jihatdan yanada takomillashtirilishi zarur. Bunda, avvalo, maqomni o'rgatishda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligini ta'minlash, talabalar uchun pedagogik jihatdan qulay va samarali uslubiyatlarni yaratish talab etiladi.

Tadqiqotda maqomning o'rganilishi va ijro etilishidagi amaliyotlar tahlil qilinganida, uning ma'naviy va estetik qirralari hamda ijtimoiy-falsafiy mazmuni alohida e'tiborga olindi. Maqom ashulalaridagi tushunchalar va mazmunlar ijrochi xonanda tomonidan qanday yoritilishi va ular orqali jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar, falsafiy va ijtimoiy g'oyalar qanday etkazilishi tahlil qilindi. Bu esa maqom san'atining nafaqat musiqiy jihatdan, balki jamiyatdagi ma'naviy hayotga qo'shgan hissasi nuqtai nazaridan ham muhimligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, maqom xonandaligi ta'lim tizimida o'rgatilishi kerak bo'lgan izlanishlarga muhtojligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maqom san'atini o'rgatishda talabalar faqat badiiy-ijroiylar jihatdan emas, balki musiqiy-folkloriy ma'lumotlar va tarixiy madaniyatni chuqur o'rganishlari zarur. O'quvchilarga maqomni o'rganish jarayonida uning tarixiy va madaniy kontekstini, shu bilan birga uning estetik-ma'naviysini anglash, ijro qilishda mahoratni to'liq ifodalashga yordam beradi.

Maqom xonandaligi O'zbek xalqining musiqa madaniyatida o'ziga xos va yuksak o'rinni tutadi. Tadqiqot davomida maqom san'atining tarixiy va estetik jihatlari, shuningdek, uning pedagogik tizimda o'rganilishi masalalari keng yoritildi. Maqom xonandaligi nafaqat an'anaviy musiqa san'atining ajralmas qismi bo'lib, balki milliy musiqaning yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maqomlarni o'rganish va ijro etish jarayonida xonanda nafaqat texnik mahorat, balki badiiy tafakkur, musiqiy madaniyat va tarixiy merosni chuqur tushunish zarur.

Maqom xonandaligida ustoz-shogird an'anasining o'rni juda katta. Shuningdek, maqomlarni o'rgatish tizimi ham muhim pedagogik asoslar bilan boyitilgan. Bunda, o'qituvchining pedagogik mahorati, ilmiy-metodik ishlari va yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalashdagi hissasi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari, maqom xonandaligini o'rgatishda an'anaviy yondashuvlar bilan zamonaviy pedagogik metodlarning uyg'unlashuvini ta'minlash zarurligini ko'rsatdi.

Maqom xonandaligining pedagogik jarayonlarida o'quvchilarni an'anaviy va zamonaviy metodologiyalar bilan qurollantirish, ularni musiqiy tafakkur va ijro mahoratini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada o'quv materiallarining sifatini oshirish, yosh xonandalarni

o‘quv va ijro mashqlarida qatnashishga rag‘batlantirish, maqomlarning xalq madaniyatidagi o‘rni va uning ijtimoiy roli haqida tushunchalar berish lozim.

Maqomlarni o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi va shogird o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va pedagogik tizimni yaxshilash, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar orqali maqom san’ati va xonandalikning yangi uslublarini yaratish, musiqiy pedagogikaga qo‘shilgan yangi g‘oyalar va usullarni ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali maqom xonandaligi sohasida yangi tadqiqotlar olib borish, ilmiy jurnallarda maqom san’ati bo‘yicha maqolalar e’lon qilish hamda ushbu san’atni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud

Maqom xonandaligini o‘rgatishda yangi metodik yondashuvlarni joriy etish: Maqom san’atini o‘rgatish jarayonida pedagogik yondashuvlarning yangilanishi, an’anaviy metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish zarur. Bu, o‘quvchilarga maqomlarning turli janrlari va uslublarini mukammal o‘rganish imkonini yaratadi.

Maqom san’ati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish: Maqomlarni o‘rganish va ijro etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, maqom san’atining yangi shakllarini ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlar orqali bu sohaning rivojlanishiga hissa qo‘sish.

Maqom xonandaligini yosh avlodga o‘rgatishda an’anaviy va zamonaviy pedagogik tizimlarning uyg‘unligini ta’minlash: Yosh xonandalar uchun ilmiy-metodik materiallar ishlab chiqish, maqomni o‘rgatishda yangi o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalar yaratish zarur.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash: Maqom san’atini o‘rgatishda raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarini qo‘llash, talabalar uchun maqomlarni o‘rganishni yanada quylaylashtirish va samarali qilish imkoniyatlarini yaratish.

Maqom san’atining ijtimoiy roli haqida ma‘lumot berish: Maqom xonandaligining xalq musiqa madaniyati va milliy qadriyatlarimizdagi o‘rni haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish, uni tarbiyaviy va madaniy jihatdan qadrlashni oshirish.

Xulosa qilib aytganda, maqom xonandaligi – bu faqat musiqa san’ati emas, balki xalqning ma‘naviy dunyosini aks ettiruvchi, o‘ziga xos pedagogik va estetik qirralarga ega bir san’at turidir. Uni zamonaviy pedagogik tizimda yanada takomillashtirish va o‘rgatish uchun yuqorida keltirilgan takliflar, albatta, katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963.
2. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O‘bek xalq muzikasi.(I-V) Toshkent. 1965.
3. Yunusov R. Sharq xalqlari maqomlari T., 2022.
4. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы Т., 2006.
5. Zufarov A.M. The contribution of eastern alloms in the formation of the maqamlar veil system //Spanish journal of innovation and integrity impact factor- 7,985(63-65 bet.)
6. Zufarov A.M. Maqomlar asosida bastalangan asarlar: Saidjon Kalonovning “Topmadim” asari misolida //Oriental Art and Culture jurnali ISSN 2181-063x scientific methodical journal volume 4 issue 5 / october 2023.